



O'SIMLIK DUNYOSINI MUHOFAZA QILISHDA YURIDIK JAVOBGARLIK EKOLOGIK MUVOZANATNI SAQLASHNING MUHIM VOSITASI

Ashurov Nuriddin Nuraliyevich

Ilmiy rahbar:-

Toshkent davlat agrar universiteti
Huquqshunoslik kafedrasida assistenti

Tel: +998909403641

Elektron pochta: ashurovn92@mail.ru

Zinat Xudoyberdiyeva Xayrullo qizi

Talaba:

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Tel:+998502220298

Elektron pochta:Djumanazarovulugbek98@gmail.com

Iroda Totliboyeva

Talaba:-Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Tel:+998958171805

Elektron pochta:iroda2293@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15574074>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEYWORDS

O'simlik dunyosi, ekologik muvozanat, huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik, qonunchilik, ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'simlik dunyosini muhofaza qilishning ekologik muvozanatni saqlashdagi o'rni va yuridik javobgarlikning bu jarayondagi ahamiyati yoritiladi. Aholi sonining o'sishi, sanoatlashtirish va tabiiy resurslardan noo'rin foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar tahlil qilinadi. Muallif O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida o'simlik dunyosini muhofaza qilish bo'yicha yuridik javobgarlik turlari – intizomiy, fuqarolik, ma'muriy va jinoiy javobgarliklarni keng qamrovli tahlil qiladi va ularning amaliy ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kelgusi 5 yilda aholimiz soni 40 milliondan ortishi kutilayotganligi va bunday demografik o'sish, albatta, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalar bilan bir qatorda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ham jiddiy etibor talab qilinishi bilan bir qatorda oldimizga yangi-yangi, ulkan vazifalarni qo'yadi. Aholi soni ortib borishi va uning yashash uchun zaruriy ehtiyojlari, havo va suvning ifloslanishi, tuproq erroziyasi, cho'llanish, qazilma yoqilg'ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetkazmoqda.

O'simlik dunyosini muhofaza qilishning ahamiyati

Ekologik muvozanatni saqlash insoniyat uchun eng dolzarb masalalardan biridir. O'simlik dunyosi esa ekologik tizimning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat atmosferani tozalash, tuproqni muhofaza qilish va biologik xilma-xillikni saqlashda, balki iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda ham muhim rol o'ynaydi. Biroq, inson faoliyati natijasida o'simlik dunyosi jiddiy tahdid ostida qolmoqda. Bu muammoni hal qilishda yuridik javobgarlik muhim vositaga aylanmoqda.

Ekologik muvozanatni saqlashning muhim omillaridan biri o'simlik dunyosini muhofaza qilish bo'lib, atrof-muhitga har qanday nooqilona tashqi ta'sirni kamaytirish, ekologik huquqbuzarliklarni oldini olishni, huquqiy chora-tadbirlarni belgilashni talab etadi.

O'simlik dunyosini muhofaza qilishda yuridik javobgarlikning roli

O'simlik dunyosini muhofaza qilishda yuridik javobgarlik muhim vosita hisoblanadi. Yuridik javobgarlik atrof-muhitni ifloslantirish, o'rmonlarni qonunsiz kesish yoki noqonuniy ravishda o'simliklarni o'zlashtirish kabi harakatlarga qarshi kurashish imkonini beradi.

Konstitutsiyamizning 49-moddasida "...davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi." Davlat vakolatli organlari orqali o'simlik dunyosidan foydalanishni tartibga solish va ekologik muvozanatni saqlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi. O'simlik dunyosidan foydalanish jarayonidagi huquqbuzarlik uchun tegishli javobgarlik belgilaydi va bu sohada davlat nazoratini amalga oshiradi, jamoatchilik nazoratini rag'batlantiradi.

"O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 26-moddasida **o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid asosiy talablar belgilangan bo'lib, unga ko'ra o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishga oid asosiy talablar quyidagilardan iborat:**

o'simlik dunyosining turlari xilma-xilligini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish;

o'simlik dunyosi o'sadigan muhitni saqlab qolish;

o'simlik dunyosidan oqilona foydalanish, uni tiklash va takror ko'paytirish;

yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning tarqalishini va sonini tartibga solish.

Mazkur moddada keltirilgan talablarga rioya qilmaslik natijasida o'simlik dunyosiga zarar yetkazilishiga, huquqbuzarlik sodir etilishiga olib kelganda yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga rioya etmaganlik, yuridik javobgarlik yuzaga keladi.

Huquqbuzarlik bu davlat va jamiyatda o'rnatilgan, jamiyatning barcha a'zolari tomonidan amal qilinishi lozim bo'lgan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ekologik sohalardagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalarni buzishdir.

O'simlik dunyosini muhofaza qilish sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilashdan maqsad eng avvalo insonning yashash huquqi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, shu bilan birga parallel ravishda ta'minlanishi lozim bo'lgan qulay atrof - muhitga ega bo'lishdek konstitutsion huquqini ta'minlanishida jismoniy va yuridik shaxslarning ekologik qonunchilik talablariga amal qilishini nazorat qilish va mazkur sohada sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun tegishli jazo choralarini belgilashdir.

Qo'llaniladigan yuridik javobgarliklar

2020-yilning 9 oyi davomida o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida 3572 ta (2019-yilda 3274 ta) huquqbuzarlik aniqlangan. Mazkur statistika o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida huquqbuzarliklar yildan-yilga ortib borayotganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida o'simlik dunyosini muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ekologiya sohasidagi javobgarliklar kabi intizomiy, fuqarolik, ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik turlari mavjud.

Intizomiy javobgarlik – o‘simlik dunyosidan foydalanish sohasini tartibga solish va bu sohada faoliyat olib borayotgan davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining o‘z mehnat vazifasi, lavozim majburiyatlariga lozim darajada rioya qilmasligi natijasida Mehnat kodeksi va “Davlat fuqarolik xizmatchilari to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida qo‘llaniladigan javobgarlik turidir.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu Fuqarolik kodeksi va “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida hamda fuqarolik-huquqiy shartnomalardan kelib chiqadigan zararni undirish, zarar o‘rnini qoplash va ularni ko‘paytirish choralarni qo‘llashdir.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun qo‘llaniladigan javobgarlikning eng keng tarqalgan turi **ma‘muriy javobgarlik** hisoblanadi. Bunda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun jarima, ma‘muriy qamoq, ashyoni musodara qilish, muyyan huquqdan mahrum qilish kabi ta‘sir choralari belgilanishi mumkin.

Xususan ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 79¹-moddasida yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarning texnik va dorivor xomashyosini, yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun yig‘ish hamda tayyorlashning, shuningdek o‘simlik dunyosi obyektlaridan madaniy-ma‘rifiy, o‘quv-tarbiyaviy, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanishning belgilangan tartibini hamda shartlarini buzish, - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi belgilangan.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilish sohasidagi javobgarlikning to‘rtinchi turi jinoiy javobgarlik bo‘lib, bu ekologiya va umuman tabiatga nisbatan sodir etilgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik natijasida yetkazilgan zarar uchun davlatning qonunchilikda belgilangan jazo choralarni qo‘llashidir.

Jumladan Jinoyat kodeksi 4-bo‘limi ekologiya sohasidagi jinoyatlar deb nomlanib, 16 moddani o‘z ichiga oladi. Kodeksning 202-moddasida “...o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi” deb belgilangan.

Prezidentimizning 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilish taklifi bir ovozdan qo‘llab quvvatlandi. Mazkur yilda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha qabul qilinadigan davlat dasturi 3-yo‘nalishi suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish deb belgilandi. Mazkur yo‘nalishda “Atrof-muhit monitoringi to‘g‘risida”gi, “Chiqindilar to‘g‘risida”gi, “Biologik xavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunlar ishlab chiqilishi ko‘rsatilgan bo‘lib, ekologiya, atrof-muhitni asrash sohasidagi muhim qoidalar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, nafaqat o‘simlik, hayvonot dunyosiga, ekologiyaga, balki tabiatga yetkaziladigan kichik bir zarar faqatgina bir insonga ta‘sir etibgina qolmay, insoniyatga, jamiyat va davlatga katta talofat yetkazadi. O‘simliklarning paydo bo‘lishidan tortib rivojlanishgacha bo‘lgan jarayon bir necha yilni tashkil etadi. Xuddi shuningdek

ularning nobud bo'lishi, zararlanishi ham ko'plab yillarni o'z ichiga oladigan ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'ladi. Shu sababli mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonunlar va dasturlar aniq ishlab chiqilishi va ularni amalga oshirishda jamoatchilikning keng ishtiroki mavjud bo'lishi hamda qat'iy javobgarlik belgilanishi lozim. Shu maqsadda 2013-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunga ham o'zgartirish kiritish lozim. Jumladan qonunning 17-moddasi 1-qism 6-bandidagi quyidagi "atrof muhitning holati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mazkur sohadagi qonunchilik buzilishi yuzasidan aniqlangan faktni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli davlat organlariga murojaat qilish va axborot olish" normani "atrof muhitning holati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mazkur sohadagi qonunchilik buzilishi yuzasidan aniqlangan faktni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli davlat organlariga **og'zaki, yozma yoki elektron shaklda** murojaat qilish va axborot olish" tarzida o'zgartirish hamda mazkur moddada alohida **"atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik buzilishi fakti haqida vakolatli organlarni o'z vaqtida xabardor etganlik uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlarga ega bo'lish"** band qo'shish lozim. Bu esa o'simlik dunyosidan foydalanish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirilishida fuqarolarning mas'uliyatini oshiribgina qolmay, ularni atrof-muhitni asrashda qonunchilikda belgilangan imtiyozlardan foydalanish huquqini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. <https://lex.uz/docs/-97664>
3. Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>
4. "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun. O'RQ-409-son. 2016-yil 21-sentabr. <https://lex.uz/docs/-3030362>
5. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonun. O'RQ-363-son. 2013-yil 27-dekabr. <https://lex.uz/ru/docs/-2304953>
6. D.N.Maxkamov. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning huquqiy holati. -T.: TDYU nashriyoti, 2024. -120 b.
7. <https://uznature.uz>